ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

BOBUR G‘AZALIYOTIDA TABIAT MANZARALARINI YARATISHDA TASHBEH VA ISTIORA SAN’ATINING O‘RNI

Xolmatova Tabassum Baxtiyorjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti, Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs magistranti
E-mail: Tabassumxolmatova60@gmail.com, Tel.: +99890-832-65-05
ORCID: 0009-0009-8370-7223
https://doi.org/10.5281/zenodo.23104655

Annotatsiya: Maqola o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasida tabiat tasvirining poetik xususiyatlarini, xususan, tashbeh va istiora san’atining qo‘llanish mahoratini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda shoir ijodida landshaft poetikasining o‘rni, tabiat unsurlarining lirik qahramonning ijtimoiy-falsafiy qarashlari va ruhiy kechinmalari bilan aloqasi tizimli tahlil etilgan. Shoirning an’anaviy tasvirlarga yangicha yondashuvi, jumladan, “xazon yafrog‘i”, “g‘urbat xazoni” kabi individual-mualliflik tashbeh va istioralari g‘azallar mikrotahlili orqali ochib berilgan. Shuningdek, tabiat manzaralarining vatan sog‘inchi, insoniy fojia va ekzistensial inqiroz motivlarini ifodalashdagi estetik vazifasi qiyosiy-badiiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot biografik, qiyosiy-tarixiy va germenevtik metodlarga tayanib, Bobur va Navoiy tabiat poetikasi o‘rtasidagi farqni ham yoritadi, shoir uslubidagi dunyoviy realizm va biografik pafosni asoslaydi.

Kalit so‘zlar: landshaft poetikasi, lirik qahramon, badiiy mahorat, mumtoz she’riyat, tasavvufiy ramzlar, vatan sog‘inchi, badiiy parallelizm, ekzistensial inqiroz, realizm, g‘urbat xazoni.

РОЛЬ ТАШБИХА (СРАВНЕНИЯ) И ИСТИОРЫ (МЕТАФОРЫ) В СОЗДАНИИ ПРИРОДНЫХ ПЕЙЗАЖЕЙ В ГАЗЕЛЯХ БАБУРА

Аннотация: Статья посвящена исследованию поэтических особенностей изображения природы в лирике Захириддина Мухаммада Бабура, выдающегося представителя узбекской классической литературы, в частности мастерству использования ташбиха (сравнения) и истиоры (метафоры). Систематически проанализированы место пейзажной поэтики в творчестве поэта и взаимосвязь природных образов с общественно-философскими взглядами и душевными переживаниями лирического героя. На основе микроанализа газелей раскрыт новаторский подход поэта к традиционным образам, в том числе индивидуально-авторские сравнения и метафоры «увядший лист» и «осень чужбины». В сравнительно-художественном плане обоснована эстетическая нагрузка пейзажа при выражении мотивов тоски по родине, человеческой трагедии и экзистенциального кризиса. Исследование опирается на биографический, сравнительно-исторический и герменевтический методы и выявляет

различия между поэтикой природы у Бабура и Навои, обосновывая светский реализм и биографический пафос в стиле поэта.

Ключевые слова: ландшафтная поэтика, лирический герой, художественное мастерство, классическая поэзия, суфийская символика, тоска по родине, художественный параллелизм, экзистенциальный кризис, реализм, «осень чужбины».

THE ROLE OF TASHBEH (SIMILE) AND ISTIORA (METAPHOR) IN CREATING NATURE LANDSCAPES IN BABUR'S GHAZALS

Annotation: The article examines the poetic features of nature imagery in the lyrics of Zahiriddin Muhammad Babur, a major figure of Uzbek classical literature, with particular attention to his skillful use of tashbeh (simile) and istiora (metaphor). It offers a systematic analysis of the place of landscape poetics in the poet's work and of the connection between natural elements and the social, philosophical and emotional world of the lyrical hero. Through a micro-analysis of ghazals, the poet's fresh approach to traditional imagery is revealed, including the individual authorial similes and metaphors "withered leaf" and "autumn of exile". The aesthetic function of landscapes in expressing longing for the homeland, human tragedy and existential crisis is substantiated from a comparative artistic perspective.

Key words: classical poetry, lyrical hero, artistic skill, Sufi symbolism, longing for homeland, artistic parallelism, existential crisis, realism, autumn of exile, hermeneutic analysis.

KIRISH.

Sharq mumtoz she'riyatida tabiat (landshaft poetikasi) shunchaki tashqi muhit yoki estetik fon vazifasini bajarmaydi. U inson ichki dunyosining makro- va mikromuhit bilan dialektik uyg‘unligini ta'minlovchi murakkab semiotik tizimdir. Mumtoz ijodkorlar gul, bulbul, sabo, sarv, xazon, yomg‘ir, bulut kabi an'anaviy tabiat unsurlaridan lirik qahramonning ruhiy holatini, ishqiy iztiroblarini yoki tasavvufiy-falsafiy mushohadalarini ifodalashda universal kodlar sifatida foydalanganlar. Biroq Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasida tabiat tasviri o‘zining o‘ta hayotiyligi, realistik chizgilarga boyligi, hayotiy empirizmga asoslanganligi va eng muhimi — ijtimoiy-falsafiy yukining salmoqliligi bilan Sharq she'riyatida batamom yangi bir sahifani ochdi. Boburning hayot yo‘li fojialarga, keskin ijtimoiy va siyosiy burilishlarga boy bo‘ldi. Taxt uchun kurashlar, vatan judoligi, doimiy harbiy yurishlar va begona iqlimiy muhitda (Hindistonda) kechgan yillar uning ruhiyatida chuqur iz qoldirdi. Bu biografik omil bevosita uning she'riyatidagi tabiat obrazlariga ham transformatsion ta'sir ko‘rsatdi. Bobur tabiatni shunchaki chetdan kuzatuvchi passiv tomoshabin emas, balki tabiat hodisalari va inson taqdiri o‘rtasida ontologik va psixologik ko‘priklar o‘rnatuvchi ijodkordir. Xususan, shoir g‘azaliyotida eng ko‘p qo‘llaniladigan va ma'no ko‘chishining o‘zagini tashkil etuvchi tashbeh (o‘xshatish) va istiora (metofora) san'atlarining funksional xususiyatlarini aniqlash, shoirning individual poetik uslubini va landshaft vizualizatsiyasini tushunishda muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Biroq Bobur lirikasidagi tabiat tasvirining aynan tashbeh va istiora orqali modellashtirilishi hamon tizimli ravishda ochib berilmagani mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqotning maqsadi

— Bobur g‘azaliyotida tabiat manzaralarini yaratishda tashbeh va istiora san’atining badiiy-estetik vazifasini aniqlashdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: shoir lirikasida tashbehning kanonik va individual-mualliflik turlarini farqlash; “Xazon yafrog‘i yanglig‘…” g‘azali misolida tabiat tasvirining ijtimoiy-falsafiy mazmunini ochish; istioraning ekzistensial va ijtimoiylashgan xususiyatlarini “g‘urbat xazoni” va “vatan bahori” munosabati orqali tahlil qilish; Bobur va Navoiy tabiat poetikasini qiyosan o‘rganish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Mavzuning o‘rganilish darajasi

Bobur shunoslik o‘zbek va jahon adabiyotshunosligida katta tarixiy va ilmiy maktabga ega. Shoir ijodining biografik, matnshunoslik va umumiy g‘oyaviy yo‘nalishlari H.Yoqubov [1], V.Abdullayev, A.Abdug‘afurov [2], S.Hasanov [3], N.Mallayev [4] kabi atoqli o‘zbek olimlari tomonidan keng tadqiq qilingan. Xususan, H.Yoqubov o‘zining fundamental ishlarida Bobur lirikasining ijtimoiy xarakterini, uning hayoti va she’riyati o‘rtasidagi mutanosiblikni yoritgan bo‘lsa [1], S.Hasanov Bobur she’riyatining poetik tizimini, undagi vazn, qofiya va radif masalalarini o‘rgangan [3].

Yevropa va AQSh adabiyotshunosligida ham Bobur shaxsiyati va uning “Boburnoma” asariga bo‘lgan qiziqish hamon yuqori. M.Shteyl, A.Beverij, S.Dale kabi xorijiy olimlar Boburning geografik, tabiatshunoslik va etnografik qarashlarini “Boburnoma” asari kontekstida tahlil qilganlar. Ular Boburdagi realistik tasvir mahoratini, tabiat qonuniyatlarini aniq va ilmiy idrok etish qobiliyatini yuksak baholaganlar.

Biroq bugungi kunga qadar Bobur lirikasidagi (g‘azal, ruboiy, qit’a va tuyug‘laridagi) tabiat tasvirining ijtimoiy-falsafiy mohiyati hamda uning aynan mikropoetik darajada, ya’ni tashbeh va istiora san’atlari orqali modellashtirilishi maxsus va tizimli ravishda monografik planda to‘liq ochib berilmagan. Mavjud ishlarning aksariyatida tabiat obrazlari shoirning badiiy mahorati tarkibida umumiy planda, sanab o‘tish xarakterida o‘rganilgan. Landshaft elementlarining qanday qilib psixologik parallelizm va falsafiy simvolizm darajasiga ko‘tarilgani, tashbeh va istioralarning strukturaviy tuzilishi hamda lingvopoetik tabiati chuqur tahlildan chetda qolib kelmoqda. Ushbu maqola Bobur matnlarining bevosita estetik va germenevtik tahlili orqali aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishni maqsad qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini adabiyotshunoslikning tizimli-tahliliy, qiyosiy-tarixiy, biografik, strukturaviy-semantik va germenevtik metodlari tashkil etadi. Tadqiqot obyekti sifatida Zahiriddin Muhammad Boburning akademik devoni [5] tarkibidagi tabiat tasviriga oid, landshaft elementlari (fasllar, meteorologik hodisalar, flora va fauna) ishtirok etgan g‘azallari tanlab olindi. Tahlil jarayonida har bir baytning badiiy strukturasi, undagi tashbeh va istioralarning semantik maydoni, hamda ularning lirik syujet va falsafiy konsepsiyani ochishdagi funksiyasi o‘rganildi. Shuningdek, shoirning hayotiy xronologiyasi va ijtimoiy-siyosiy ahvoli matndagi lirik kayfiyat bilan qiyoslanib, biografik metod imkoniyatlaridan unumli foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Tashbeh san'ati va uning turlari

Tashbeh (o'xshatish) — Sharq she'riyatida ikki yoki undan ortiq narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik alomatlarini topish va ular vositasida tasvirning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladigan eng universal poetik usullardan biridir. An'anaviy poetikada tashbehning to'rt rukni (mushabbah, mushabbahun bih, vajhi shabh, adoti tashbeh) mavjud bo'lib, ularning matndagi ishtirokiga ko'ra o'xshatishlar turlicha tasniflanadi [6]. Bobur g'azallarida tashbehlar shunchaki bezak emas. Ularni chuqur tahlil qilganda ikki xil estetik yo'nalish ko'zga tashlanadi:

1. Kanonik (an'anaviy/shartli) tashbehlar: Bu tipdagi o'xshatishlarda shoir o'zidan oldingi saloflar (Lutfiy, Navoiy, gadoiy) tomonidan ishlab chiqilgan poetik andozalarga rioya qiladi (masalan, yor yuzini gulga, qomatini sarvga, ko'zini nargisga o'xshatish).

2. Individual-mualliflik (realistik) tashbehlari: Bu shoirning bevosita o'z hayotiy tajribasi, tabiatni realistik kuzatishi va falsafiy xulosalari asosida yuzaga kelgan, Sharq she'riyatida muqobili bo'lmagan original o'xshatishlardir.

"Xazon yafrog'i yanglig'…" g'azalining tahlili

Boburning tabiat tasviridagi individual mahoratini ko'rsatuvchi eng yorqin misollardan biri uning "Xazon yafrog'i yanglig'…" g'azalidir [5]. Bu g'azal o'zining ijtimoiy-falsafiy dardi va vizual-poetik chizgilari bilan mumtoz adabiyotimizning durdonasi hisoblanadi:

Xazon yafrog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,
Ko'rub rahm aylagil, ey lola rux, bu chehrayi zardim.
Sen, ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayog'ingg'a tushib, bargi xazondek muncha yolbordim.
Latofat gulshanida gul kabi sen sabz-u xurram qol,
Men archi dahr bog'idin xazon yaprog'idek bordim.
Xazondek qon yoshim sorig' yuzumdin el tanaffurda,
Bahar range, bihamdilloh, ulusdin o'zni qutqordim.
Ne toledur mangakim, axtari baxtim topilmaydur,
Falak avroqini har nechakim daftardin axtardim.
Ulusning ta'n-u ta'rifi manga, Bobur, barobardur,
Bu olamda o'zumni chun yamon-yaxshidin o'tkardim.

G'azal tahlili. Mumtoz matnlar tahlilida dastlabki va eng mas'uliyatli bosqich uning g'oyaviy-estetik butunligini ta'minlovchi qonuniy matnini belgilashdir. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida nafaqat yirik davlat arbobi va sarkarda, balki lirik merosi bilan falsafiy-estetik tafakkurning yangi ufqlarini ochgan buyuk lirik shoirdir. Uning "Xazon yafrog'i yanglig'..." matla'si bilan boshlanadigan g'azali ishqiy, ijtimoiy-falsafiy va hasbi hol xarakteridagi asar bo'lib, Alisher Navoiydan keyingi turkiy she'riyatning eng mukammal namunalaridan biri hisoblanadi. Matla'da tashbehi xos va tazod san'atlari orqali lirik qahramonning ayriliq iztiroblari sarg'aygan xazon bargi timsolida jonlantiriladi. "Gul" va "xazon" qarama-qarshiligi orqali hayot va fano tasvirlanadi. 2- baytda sarkash yor (sarv) va xokisor oshiq (bargi xazon) obrazi orqali vertikal-gorizontal qarama-qarshilik va lirik qahramonning tavallosi tasvirlangan. Uchinchi baytda ijodkorning falsafiy mushohadalari bayon etilgan. Oshiqning o'z o'limini xazon bargiga o'xshatishi

va yorga abadiy go‘zallik tilashi ishqning yuksak tasavvufiy mohiyatini ko‘rsatadi.To‘rtinchi baytda esa ijtimoiy-psixologik holat ko‘rsatilgan. “Ulusdin o‘zni qutqordim” iborasi bilan shoir tasavvufiy “uzlat” maqomiga ishora qilib, eldan ayrilishni (tanaffur) ozodlik deb biladi. Beshinchi baytda taqdir fojiasi va insonning ojizligi “falak avroqi” (osmon varaqlari) daftardek axtarilishi orqali ifodalanadi. Maqta’da shaxsiy pozitsiya: shoir taxallus qo‘llash bilan dunyoning yaxshi-yomoniga befarqlik (istig‘no) holatiga erishganini bayon etadi. G‘azalda “xazon/zard” (g‘am/fano), “lola/qon yosh” (ehtiros/fojia) va “sabz” (abadiyat) ranglari ruhiy holatni ifodalovchi asosiy vositalardir. “Boburnoma” ma’lumotlariga ko‘ra, g‘azaldagi sargardonlik va vatandan ayrilish motivlari shoirning shaxsiy hayotiy dramalari bilan bog‘liq bo‘lib, umumbashariy falsafiy darajaga ko‘tarilgan. Boburning “Xazon yafrog‘i yanglig‘...” g‘azali Ramali musammani mahzuf vaznida yaratilgan bo‘lib, u lirik iztiroblarni tabiat manzaralari bilan parallelizmda ko‘rsatadi. G‘azalda ishqiy kechinmalar ijtimoiy-falsafiy va tasavvufiy mazmun bilan boyitilib, yakunda istig‘no maqomiga olib chiqiladi.

Istiora san’ati va uning ijtimoiy-falsafiy vazifasi

Istiora (metafora) mumtoz poetikada tashbehning alohida va yuksak bir shakli sifatida qaraladi. Unda o‘xshatish ruknlaridan biri (odatda mushabbah yoki mushabbahun bih) yashiriladi, natijada ma’no kuchli konsentratsiyaga uchrab, so‘z butunlay yangi ko‘chma ma’no kasb etadi [6]. Agar tashbehda ikki narsa yonma-yon qo‘yilsa, istiorada ular bir-birining ichiga singib ketadi. Bobur lirikasida istiora san’ati tabiat elementlarini ijtimoiylashtirish va ularga ekzistensial (inson mohiyatiga oid) ruh bag‘ishlashning eng asosiy qurolidir. Shoir ijodidagi eng markaziy istioraviy dikotomiya (ziddiyat) — bu “G‘urbat xazoni” va “Vatan bahori” munosabatidir. Shoir Hindistonni zabt etib, buyuk imperiyaga asos solgan bo‘lsa-da, u yerdagi tabiat uni o‘ziga tortolmadi. Uning she’rlarida begona yurt tabiati g‘am manbai, Vatan tabiati esa yo‘qotilgan jannat sifatida istiora qilinadi [5]:

Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishnikim ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yub Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Bobur va Navoiy tabiat poetikasining qiyosiy muhokamasi

Bobur lirikasidagi tabiat tasviri va undagi badiiy ko‘chimlar (tashbeh, istiora) tizimini o‘zbek adabiyotining boshqa bir cho‘qqisi — Alisher Navoiy ijodi bilan qiyosiy tahlil qilish, Bobur uslubining o‘ziga xosligini anglashda kalit vazifasini o‘taydi. Alisher Navoiy ijodida tabiat tasviri, asosan, tasavvufiy-mistik va falsafiy simvolizmga asoslanadi. Navoiyda “gul” — mutloq Go‘zallik, ya’ni Alloh taoloning jamoli ifodasi, “bulbul” — ilohiy ishq yo‘lidagi solih (oshiq), “tikan” (xor) esa bu yo‘ldagi dunyoviy to‘siqlar yoki raqib timsolidir. Navoiy landshaftni tasvirlaganda dunyoning foniy ekanligi, ilohiy ishqning boqiyligini ko‘rsatishni maqsad qiladi.

Zahiriddin Muhammad Boburda esa vaziyat tubdan farq qiladi. Bobur ijodida dunyoviy realizm va biografik pafos ustunlik qiladi. Boburning “gul” — bu bevosita real hayotdagi go‘zal ayol, yoki uning o‘zi asos solgan Kobul va Agra bog‘laridagi real flora namunasidir. U gulni tasvirlaganda uning hidi, rangi va shaklini realistik aniqlik bilan tasvirlaydi (buni uning “Boburnoma”da o‘simliklar dunyosini ilmiy tasvirlaganida ham ko‘rish mumkin [7]). Shu sababli uning tashbeh va istioralari ham hayotiydir. Navoiyda dunyo “g‘amxona” yoki “majnunvash sahro” bo‘lsa, Boburda dunyo — real

yutqazilgan Vatan, boy berilgan saltanat va do‘stlarning xiyonatidan sarg‘aygan “xazon rezgilik”dir. Boburning tabiat poetikasi inson ruhiyatining ijtimoiy-siyosiy voqealar ta’sirida sinishi yoki yuksalishini ko‘rsatuvchi eng aniq va shaffof “ko‘zgu” vazifasini bajaradi. U uzoq ilohiy timsollardan ko‘ra, insoniy va real kechinmalarga yaqinroqdir.

XULOSA.

Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azaliyotida tabiat tasviri va uning poetik xususiyatlarini tashbeh hamda istiora san’atlari kontekstida fundamental tadqiq etish quyidagi muhim ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. Tashbeh san’atining yangilanishi: Bobur mumtoz she’riyatdagi an’anaviy, qolipga tushgan o‘xshatishlarni inkor etmagan holda, ularga kuchli realistik va individual ruh bag‘ishladi. Uning “xazon yafrog‘i yanglig‘…” kabi o‘xshatishlari Sharq she’riyatida landshaft tasviri orqali insoniy tanazzul va o‘lim fojiasini ifodalashning eng yuksak cho‘qqisi hisoblanadi.

2. Istioraning ijtimoiylashuvi: Shoir g‘azallaridagi istioralar (metoforalar) sof estetik vazifadan ijtimoiy-falsafiy vazifaga transformatsiya qilingan. “G‘urbat xazoni” va “Vatan bahori” kontseptual istioralari orqali lirik qahramonning vatan judoligi, ekzistensial yolg‘izligi va g‘urbatdagi ruhiy iztiroblari chuqur falsafiy umumlashtirilgan.

3. Badiiy parallelizmning mukammalligi: Bobur ijodida tabiat va inson yaxlit bir ekotizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bulutning yig‘lashi, saboning bag‘irni qon qilishi lirik qahramon ruhiyatining tashqi dunyodagi proyeksiyasidir.

4. Metodologik ahamiyati: Maqola doirasida olingan ushbu natijalar Bobur uslubining o‘ziga xos realizmini va hayotiyligini isbotlaydi. Bu esa kelgusida shoir she’riyatini shartli ramzlar doirasida emas, balki real insoniy kechinmalar va landshaft psixologizmi prizmasida o‘rganish kerakligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Yoqubov H. Bobur lirikasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. – T.: Fan, 1983. – 186 b. (Yakubov H. Ideological and artistic features of Babur’s lyrics.)
2. Abdug‘afurov A. Bobur ijodiyoti masalalari (Monografiya). – T.: O‘qituvchi, 1991. – 210 b. (Abdugafurov A. Issues of Babur’s creative work (Monograph).)
3. Hasanov S. Bobur she’riyatining poetikasi va badiiy takomili. – T.: Fan, 2012. – 245 b. (Hasanov S. The poetics and artistic evolution of Babur’s poetry.)
4. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1976. – 480 b. (Mallayev N. History of Uzbek literature.)
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Asarlar. Uch jildlik. 1-jild: Devon (G‘azallar, ruboiylar, qit’alar, fardlar). – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2008. – 340 b. (Zahiriddin Muhammad Babur. Works. In three volumes. Vol. 1: Divan (Ghazals, rubais, qitas, fards).)
6. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat sirlari (Shedr san’atlari tahlili). – T.: Sharq, 2003. – 150 b. (Hojiahmedov A. Secrets of classical artistry (Analysis of poetic arts).)
7. Azizxo‘jayev E. Boburnoma va uning badiiy-estetik tabiati. – T.: Sharq, 1999. – 190 b. (Azizkhodjayev E. The Baburnama and its artistic and aesthetic nature.)